

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH.

Rizayeva Shaxlo Saloitdinovna

Jizzax shahar 37-DMTTda tarbiyachi.

Annotatsiya: *Ushbu masalada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning mohiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *barkamol inson, umuminsoniy qadriyatlar, jismoniy yetuklik, milliy ong, milliy birdamlik, ma'naviyatdan mahrum, millat birligi, bolalarning qiziqish va qobiliyatlari.*

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashdan asosiy maqsadi - yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirish hisoblanadi. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. Har bir millat o'z qadriyatlarini rivojlantirishi va ularga amal qilishida milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usining ahamiyati kattadir. Milliy ruhiyat va ma'naviyatdan mahrum bo'lgan kishilardagina o'z tili, tarixi, an'analariga ongli munosabatda bo'lishi mumkin. Agar shunday ahvol ma'lum siyosat ta'sirida kengayib borsa, millat birligi va kamoloti uchun nihoyatda xatarli bir hol yuzaga keladi.

Davlatimizning mustaqillikka erishuvi ta'lim va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib berdi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda to'tgan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatidir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning archasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Mehmondo'stlik, bolajonlik, yaqin qo'ni- qo'shnicilik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan yaqin aloqada bo'lish, sahiylik, halol bilan haromni farqlash O'rta Osiyo xalqlarining hammasiga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlaridir. Garchand mehmondo'stlik bilan bog'liq udumlar mintaqamizning hamma yerida keng tarqalgan yaxshi an'ana bo'lsa ham ular turli joylarda bir-biridan farq qiladi. Keksalarni, ota-onani hurmat qilish ham O'rta Osiyo xalqlarining o'ziga xos yuksak ma'naviy boyligidir. Keksalar ko'pni ko'rgan, aql va idrok bilan har [ishda maslahat bera oladigan](#), yoshlarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o'rganish ma'naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir. Ota-onani hurmat qilish, ularning gapiga, pand nasihatiga quloq solish ham katta ma'naviy qadriyatdir. Ota-ona hech vaqt o'z farzandiga yomonlik ravo ko'rmaydi. Ular hayotda ko'p og'irlik, yengilliklarni ko'rgani sababli, farzandlarining istiqbolini ham ulardan ko'ra ko'proq o'ylaydilar, Ba'zan ota-onalarning nasihatlari noqobil farzandlarga og'irroq tuyuladi. Bu hayotni bilmaslik, hayotning turli jarayonlariga yengil-yelpi qarashning oqibatidir. Farzandlar ota-onaning qadrini o'zlari ota-ona bo'lganidan keyingina fahmlab oladilar. Bu davr ichida ular ma'naviy kamolotning ko'p imkoniyatlarini qo'ldan boy berib qo'yadilar. Shuning uchun ulkan ma'naviy qadriyat bo'lmish ota-onani hurmat qilish odatini aslo unutmaslik kerak.

Ota-onaga bo'lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin bizning mintaqamizda bu qadriyatni e'zozlash boshqa hamma joylardagiga nisbatan ustunroq turadi. Hashar yo'li bilan uy-joy qurishda, uy joylarni ta'mirlashda bir-biriga yordam ko'rsatish, yetim-yesirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, ularni qarindosh-urug'lar o'z himoyasiga olib, xoru zor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir.

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash kerak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishni ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. «Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi». T., «Sano-Standart», 2004.

2. Djuraeva.D.R. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari T.: 2015 y. O'zPFITl. Uslubiy qo'llanma.

3. Qodirova F.R, Toshpo'latova SH.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.

Internet saytlari.

1. www.tdpu.uz.
2. www.pedagog.uz.
3. www.Ziyonet.uz.